



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**



**SURXONDARYO VILOYATI XALQ TA’LIMI**  
**XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING**  
**MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA**  
**TA’LIMNING RIVOJLANISH**  
**ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA**  
**YECHIMLAR**

**XALQARO ONLAYN ILMIY-AMALIY**

**KONFERENSIYA**  
**MATERIALLARI**

**TERMIZ-2021**

ekanlar, biz pedagog- tarbiyachilar zimmasidagi vazifa ham bolalarni ana shu davrdan boshlab bilim asoslarini puxta egallashga, tabiat bilan, unda yuz beradigan voqea-hodisalar bilan tanishtirib borishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Yosh avlodni har tomonlama kamol tontirishda bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishning ahamiyati kattadir. Yoshlarga tarbiya berar ekanmiz, eng avvalo tarbiyaning shu kecha-kunduzdan ahamiyati zarurligini xam jamiyatimiz uchun, xam insonning shakllanishidagi rolini ilmiy asoslab tushuntirib berishimiz kerak. Umumiy tarbiyani singdirishda tabiat elementlari, uning boyliklari jonli va jonsiz tabiatdagi materialistik nuqtai nazardan foydalanib, yoshlarni uning sir-asrorlariyu to‘liq bilib olishga, o‘rganishga va ulardan oqilona foydalanishga o‘rgatishimiz lozim.

Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining va maktablarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu g‘oyani amalga oshirishda ularni tabiat bilan tanishtirish ham asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Tabiatdan barcha tiriklik jarayonlari ma’lum qonuniyat asosida qurilgan bo‘lib, uni bilib, o‘rganib olishimiz, undan oqilona foydalanishimiz kerak. Haqiqatdan ham shaxsni har tomonlama shakllanishi bizning jamiyatimizdagina amalga oshadi. Chunki yoshlarni o‘sishi, ulg‘ayishi uchun ona tabiatning hamisha bag‘ri ochiq. Biz yilning qaysi faslida toqqa, tog‘ etaklariga, qir-adirlarga daryo, hovuz, kanallar bo‘ylariga sayrga bormaylik, hamisha u yerlarning manzarasi, xush havosini ko‘rib, bahri dilimiz ochiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”.– T.: O‘qituvchi, 1992.
2. Al-Forobiyning —”Fozil odamlar shahri” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashryoti. 1993.
3. “Maktabgacha ta’lim” jurnali. 2010-yil 1-soni.

### **BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR AHAMIYATI**

*Nazarova Manzura Mustafo qizi,  
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada taraqqiyot va ta’lim jarayoni ilmiy ravishda tahlil qilinib, zamonaviy ta’lim texnologiyasida muammoli ta’limning tutgan o‘rni, muammoli ta’lim texnologiyasi orqali o‘quvchini izlanish olib borish, tahlil qilish, empirik xulosa chiqarishga tayyorlash masalalari yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** taraqqiyot, differentatsiya, ta’lim, integratsiya, innovatsiya.*

***Аннотация:** В данной статье научно проанализирован процесс развития и обучения, освещена роль проблемного обучения в современных образовательных технологиях, вопросы подготовки обучающегося к*

проведению исследований, анализу, эмпирическому выводу с помощью технологии проблемного обучения.

**Ключевые слова:** прогресс, дифференциация, образование, интеграция, инновации.

**Annotation:** This article covers the role of problem education in modern educational technology, research, analysis and preparation of the student for empirical conclusion through problematic educational technology, scientifically analysing progress and educational process.

**Key words:** development, differentiation, education, integration, innovation.

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Bugun jamiyat maktab oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi. Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ta'limga integratsion yondashuv tushunchasiga ko'p bora duch kelmoqdamiz. Xo'sh, integratsiyaning o'zi nima? Integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin. O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi subyektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – subyektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlar(aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Ta'limning globallasuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi [1,87-b].

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Zamonaviy ta'lim texnologiyasida muammoli ta'lim alohida o'rin tutadi. Muammoli ta'lim texnologiyasining zamirida bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolar zanjiri yotadi.

Bolaning o'sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti, jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ta'lim va taraqqiyot masalasini tushunishda psixologiyada 2 yo'nalish mavjud. Birinchi yo'nalishga muvofiq avvalgi narsalarni oddiy takrorlanishdan, ya'ni organizmdagi mavjud sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib, bu yo'nalish taraqqiyotning haqiqiy sabablarini tushuntirib bera olmaydi. Ikkinchi yo'nalishga muvofiq taraqqiyot qarama-qarshiliklar kurashidan iborat. Taraqqiyot bilan ta'lim o'zaro bog'liq bo'lib, bu haqida 3 xil nazariya mavjud[2, 145-b]:

1. Taraqqiyot bilan ta'lim orasida farq yo'q, degan nazariya. Bunga binoan taraqqiyot va ta'lim bir xil jarayondir.

2. Taraqqiyot va ta'lim orasida munosabat yo'q deyish bilan taraqqiyot o'zicha, ta'lim esa o'zicha rivojlanadigan jarayon deb ko'rsatiladi.

3. Taraqqiyot va ta'lim alohida-alohida jarayon bo'lsa ham ular bir-biriga mos tushadi deyish bilan avvalgi ikki nazariyani keltirishmoqchi bo'ladilar.

Jahon psixologiyasining namoyondasi L.S.Vigotskiy taraqqiyot va ta'lim jarayonini ilmiy ravishda tahlil qilib, taraqqiyot va ta'lim bir-biriga mos kelmaydigan jarayon deb ko'rsatadi. L.S.Vigotskiy fikricha ta'lim ilgari ketadigan jarayon, taraqqiyot esa uning orqasidan ergashib boradi deb ko'rsatadi. Chunki ta'lim bolaning kechagi rivojlanishini emas, balki, ertangi, kelgusi kun rivojlanishini hisobga olib tashkil etiladi. Bola ta'lim jarayonini o'zlashtirar ekan, unda shu kungacha shakllanmagan aqliy jarayonlar shakllanadi. U taraqqiyotning 2 bosqichini: 1) eng yaqin taraqqiyot bosqichi, ya'ni bolaning kattalar yordamida rivojlangan bosqichi; 2) aktual taraqqiyot bosqichi zonasi, ya'ni bolaning mustaqil rivojlanadigan va taraqqiyotidagi xususiyatlarning shakllanadigan bosqichi zonasi deb ko'rsatadi.

Bolani birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan unda qanday psixologik qiyinchiliklar ro'y berishi mumkin? Kichik maktab davrida bolaning birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi unda o'quv faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. O'quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarini ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatlari va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida psixologik qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Jumladan, o'quvchi 45 minutlik darsda o'z diqqatini ta'lim mazmuniga qaratish, o'qituvchilarning

fikrlarini o'qib olishi, uy vazifalarini bajarish shartligini his qilish, maktab, ko'cha qoidalariga rioya qilish, ota-ona, o'qituvchi, maktab oldidagi burchni his qilish kabi ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar ta'lim-tarbiya jarayonida, o'qituvchilarga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati jarayonida bartaraf etiladi. Aynan muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchi izlanish olib borish, tahlil qilish, empirik xulosa chiqarish, boshqa vaziyat qo'llash, fikr-mulohazalarini taxminan sistemalashtirib isbotlash, kelgusida amaliy faoliyatga qo'llash malakalarini egallab boradi[3,246-b]. Muammoli ta'lim an'anaviy o'qitish metodikasiga tayanadi. O'qituvchi muamoli vaziyatni o'quvchilar oldiga qo'yish bilan bir qatorda uni yechish uchun izlanish zarurligini, izlanish uslublarini o'quvchilarga o'rgatadi. Izlashga o'tish uchun, eng avvalo zaruriy muhit yaratilishi kerak.

Muammo aniq bo'lishi, o'quvchilar uning yechimini izlash jarayonida oldingi mavzularda, fanlarda olgan ma'lumotlari, tushunchalari, bilimlaridan foydalana oladigan bo'lishi kerak. O'quvchilar oldiga qo'yilgan muammo o'zining dolzarbligiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchi izlanishni ma'lum bir sistemada, muayyanlikda bo'lgan muammo ustida olib borish kerak. Shunda o'quvchi muammoni tahlil qiladi, qismlarini ajrata oladi va yechish uchun kirishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, integratsion ta'lim o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinishini boshqarish, qarshi tomonning fikrini munozara qilish, malakasini rivojlantirish, o'quvchini aktiv fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish, o'z fikrini bayon qilishnigina emas, balki, boshqalarni ham eshitish mahoratini rivojlantirish, o'quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotni olish va zarur xulosalar chiqarish hamda o'quvchilarda ixtirochilik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirish imkonini beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. G'oziyev E. "Oliy maktab psixologiyasi" T.1997.
2. Petrovskiy A.V. tahririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Moskva. 1979.
3. Nazarova M.M. "Zamonaviy psixologiyaning innovatsion taraqqiyot omillari: muammolar, qonuniyatlar va istiqbollar" mavzusidagi maqolasi.
4. Innovatsiyalar va ta'limdagi islohotlar kontekstida zamonaviy psixologiya" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya.T.2019.

дошкольников.....	909
<b>Ж.М. Джумаев.</b> Как составная часть учебной деятельности младших школьников в системе развивающего обучения.....	912
<b>А.Х.Джуракулова.</b> Ностандарт масалалардан фойдаланиш асосида бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий қобилиятларини ривожлантириш.....	915
<b>Д.З.Бахритдинова.</b> Бошланғич синфларда дарсларни интеграциявий ёндашув асосида ташкил этиш йўллари.....	918
<b>Ж.Зокиров.</b> Бошланғич синф ўқиш дарсларида тарихий асарлар матни устида ишлаш усуллари.....	921
<b>Ш.Х.Кадирова.</b> Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларида миллий ғурур, миллий ва маънавий қадрият туйғусини тарбиялашнинг аҳамияти.....	924
<b>Ф.Ҳайитова.</b> Бошланғич таълимда китобхонлик маданиятини шакллантиришга креатив ёндашиш.....	928
<b>Б.Марасулов, М.Қ.Рустамова.</b> Мактабгача таълим муассасаларида болаларни теварак-атрофга бўлган қизиқишларини шакллантириш педагогик муаммо сифатида.....	933
<b>М.М.Назарова.</b> Бошланғич таълим ўқувчиларининг психик таракқиётида интеграциявий-инновацион ёндашувлар аҳамияти.....	936
<b>И.А.Охунов, У.Сулаймонова.</b> Мактабгача таълим ёшидаги болаларнинг нутқини ўстириш ва саводга тайёрлаш йўллари.....	940
<b>Н.М.Салохитдинова.</b> Бошланғич таълимда аниқ ва табиий фанларни ўқитишда интеграцион ёндашувнинг методик асослари.....	944
<b>М.А.Сафарова.</b> Бошланғич таълим дарсларида самарали усуллардан фойдаланишнинг аҳамияти.....	949
<b>М.А.Сафарова.</b> Бошланғич таълим жараёнида она тили дарсларини ташкил этишда ўқитувчи маҳорати.....	952
<b>Ҳ.Т.Тўхтаев.</b> Бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялашда миллий-маънавий мерос ва қадриятларнинг ўрни ва аҳамияти.....	955
<b>Д.Г. Умнов.</b> Мактабгача таълимда истеъмолчилик маданиятига оид қарашларнинг назарий асослари.....	961
<b>Р.Д.Хайдарова.</b> Бошланғич синфларда фараз қилишга доир масалаларни ечиш ва гипотезалар таҳлили.....	964
<b>Д.Ў.Хасанова.</b> Бошланғич синфларда математика ўқитиш усуллари ва уларнинг классификацияси.....	968
<b>Р.С.Хуррамов.</b> Бошланғич синфда ўқитишнинг замонавий технология ва методларидан фойдаланиш усуллари.....	971
<b>З.Т.Чориева.</b> Бошланғич синф ўқувчиларига табиий фанларни ўқитишда TIMSS топшириқларидан фойдаланиш.....	974
<b>D.T.Ergasheva</b> Improving the efficiency of preschool education.....	976
<b>С.Қ.Эшбоева.</b> Бошланғич синф ўқувчиларида экологияга оид тушунчаларни шакллантиришда креатив ёндашувни такомиллаштириш.....	981